

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA UNDOSH FONEMALARING LABIAL-TIL OLDI VA LABIAL-TIL ORQA OPPOZITSIYALARI

To‘xtasinova Gulsanam Saydillo qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

gulsanamsaydullayevnal@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh fonemalarning tasnifi hamda undosh fonemalarning artikulyatsion xususiyatlariga asoslanib, ularning labial-til oldi va labial-til orqa oppozitsiyalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: konsonantizm, oppozitsiya, Muso al-Xorazmiy, fonema.

Konsonantizm bu undoshlar tizimidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili undoshlari tizimi 24 fonemani o‘z ichiga oladi. Bular: b, v, g, d, j, dj, z, y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h. Biroq manbalarda hozirgi ozbek adabiy tili undoshlari miqdoriga oid boshqa fikrlar ham bor: 22 ta (S.Otamirzayeva, Y.D.Polivanov), 23 ta (A.K. Borovkov, I.A.Kissen), 25 ta (A.N.Kononov, V.V.Reshetov, A.Abduaazizov), 27 ta (M.M.Mirtojiyev). Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tili undosh fonemalari miqdori masalasida tilshunoslikda tugal bir fikr yo‘q. Bu hol o‘zbek tili undoshlarining fonologik belgilariga munosabat hozircha har xil bo‘lib qolayotganligidan kelib chiqmoqda.

S. Otamirzayeva va M. Yusupovalar fikricha, "Hozirgi o'zbek adabiy tilida "f" va sirg' aluvchi "j" undoshlari, shuningdek qorishiq "ts" (т) undoshi fonologik darajaga ko'tarilmagan: "f" va "j" undoshlari portlovchi "p" ning va qorishiq "dj" ning variantlari darajasidadir. Qorishiq "ts" esa o'zbek tilida fonemalik darajasiga ko'tarila olmagan". Shundan kelib chiqib, mualliflar undoshlarni quyidagicha tasniflashadi:

I. Paydo bo'lish o'rniga ko'ra:

1. Lab undoshlari: p-b, f-v, m;
 - a) lab-lab (labial): p, b, m;
 - b) lab-tish (dental): f, v.
 2. Til undoshlari: t-d, s-z, ch-dj, sh-j, k-g, x-g‘, q, n, r, y, ng, l;
 - a) til oldi undoshlari: t-d, s-z, ch-dj, sh-j, r-n;
 - b) til o‘rta undoshi: y;

- d) sayoz til orqa undoshlari: k-g, ng;
- e) chuqur til orqa undoshlari: q, x, g‘;
- f) tilning yonida paydo bo‘ladigan undosh: l.

3. Bo‘g‘iz undoshi: h

II. Paydo bo‘lish usuliga ko‘ra:

1. Portlovchi undoshlar: p-b, m, t-d, n, k-g, ng, q:

 - a) sof portlovchilar: p-b, t-d, k-g, q (bularda portlash kuchli bo‘ladi);
 - b) nazal (burun) portlovchilari: m, n, ng (bularda portlash kuchsiz bo‘ladi).

2. Sirg‘aluvchi undoshlar: f-v, s-z, sh-j, y, x-g‘, h.
3. Qorishiq undoshlar: ch (t+sh), dj (d+j);
4. Titroq undosh: r.

III. A. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra:

1. Jarangsizlar: p, f, t, s, sh, ch, k, q, x, h.

«H» undoshi jaranglilik va jarangsizlikka ko‘ra ham, turkiy bo‘lmagani tufayli, alohida xususiyatga ega. Uning jarangsizlar safida turishi shartlidir.

2. Jaranglilar: b, d, z, j (sirg‘aluvchi), dj (qorishiq), g, g‘.

B. Ovoz ishtiroki darajasiga ko‘ra:

1. Shovqinlilar: p-b, f, t-d, s-z, sh-j, ch-dj, k-g, q, x, g‘, h.
2. Sonorlar: m, v, n, r, l, y, ng.

Muso al-Xorazmiy “Pozitsion” kategoriyaga asos solgan. Shundan oppozitsiya hodisasi yuzaga kelgan.

Fonologik oppozitsiya ikki fonemaning bitta farqlanish belgisi asosida o‘zaro zidlanish hosil qilishidir. Masalan, „p“ (jarangsiz) va „b“ (jarangli) undoshlari jarangsiz-jarangli belgisi asosida bir oppozitsiyaga birlashadi. Bu ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi: p (lab-lab) – b (lab-lab), p (portlovchi) – b (portlovchi) kabi. Demak, undosh fonemalarga xos bo‘lgan uchta fonologik belgilar – artikulatsiya o‘rni, artikulatsiya usuli va jarangsizlik-jaranglilik belgilaridan faqat bittasi (so‘nggisi) p-b oppozitsiyasiga asos bo‘lgan. Shuning uchun u "birlik oppozitsiya" sanaladi.

Labial-til oldi fonemalar oppozitsiyasi – bu undoshlar artikulatsiya o‘rniga ko‘ra oppozitsiya hosil qiladi. Masalan: p-t, b-d, m-s, b-sh, p-n, m-r.

Labial-til orqa fonemalari ham artikulatsiya o‘rniga ko‘ra oppozitsiya hosil qiladi. Masalan: b-k, p-g, m-ng, p-q, b-x, m-g‘.

O'zbek adabiy tilining fonologik tizimida undosh fonemalarning artikulyatsion joyiga asoslangan oppozitsiyalar alohida o'rinn tutadi. Jumladan, labial, til oldi va til orqa undoshlar o'zaro fonologik qarama-qarshilik (oppozitsiya) munosabatlariga kirishib, tilning tovush tizimini tashkil etadi. Bu oppozitsiyalar orqali tovushlarning o'zaro farqlanishi, ularning semantik yuklamalari va nutqdagi funksional roli aniqlanadi. Labial-til oldi va labial-til orqa oppozitsiyalari ayniqsa artikulyatsion xususiyatlar asosida aniqlanib, har bir fonemaning joylashuvi va aytish uslubini fonematik darajada farqlashga imkon yaratadi. Masalan, "b" – "d" – "g" yoki "m" – "n" – kabi qatorlarda bu oppozitsiyalar aniq ko'zga tashlanadi. Bu qarama-qarshiliklar fonemalarning paradigmatic munosabatini belgilaydi va ularni tildagi boshqa fonemalar bilan nisbatan mustaqil va farqlanuvchan birlik sifatida ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboy Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2013. 93-94-betlar.
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fonologik_oppozitsiya